

**BUXORO DAVLAT TIBBIYOT INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.04/30.04.2022.Tib.93.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

BUXORO DAVLAT TIBBIYOT INSTITUTI

AXMEDOV RAXMATILLO FURQATOVICH

**KUYISH SEPSISI: BASHORAT QILISH, DAVOSI VA
OLDINI OLISH**

14.00.27 – Xirurgiya

**Tibbiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Buxoro - 2023

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi
Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
Content of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD)

Axmedov Raxmatillo Furqatovich

Kuyish sepsisi: bashorat qilish, davosi va oldini olish.....3

Ахмедов Рахматилло Фуркатович

Ожоговый сепсис: прогнозирование, лечение и профилактика.....23

Akhmedov Rakhmatillo Furqatovich

Burn sepsis: prognosis, treatment and prevention 43

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ

List of published works 47

**BUXORO DAVLAT TIBBIYOT INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.04/30.04.2022.Tib.93.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

BUXORO DAVLAT TIBBIYOT INSTITUTI

AXMEDOV RAXMATILLO FURQATOVICH

**KUYISH SEPSISI: BASHORAT QILISH, DAVOSI VA
OLDINI OLISH**

14.00.27 – Xirurgiya

**Tibbiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Buxoro - 2023

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2020.4.PhD/Tib1575 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Samarqand davlat tibbiyot universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus va ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.bsmi.uz) va «ZiyoNet» Axborot-ta’lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar

Karabayev Xudoyberdi Karabayevich
tibbiyot fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar

O‘roqov Shuhrat To‘xtayevich
tibbiyot fanlari doktori

Eshonxodjayev Otabek Djurayevich
tibbiyot fanlari doktori

Yetakchi tashkilot

Janubiy Qozog‘iston tibbiyot akademiyasi
(Qozog‘iston Respublikasi)

Dissertatsiya himoyasi Buxoro davlat tibbiyot instituti huzuridagi DSc.04/30.04.2022.Tib.93.01 raqamli Ilmiy kengashning 2023 yil «___» _____ kuni soat ____dagi majlisida bo‘lib o‘tdi. (Manzil: 200118, Buxoro shahri, A.Navoiy shoh ko‘chasi, 1-uy. Tel./Faks: (+99865) 223-00-50; tel: (+99865) 223-17-53; e-mail: buhmi@mail.ru)

Dissertatsiya bilan Buxoro davlat tibbiyot instituti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (___ raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 200118, Buxoro shahri, A.Navoiy shoh ko‘chasi, 1-uy. Tel./Faks: (+99865) 223-00-50.)

Dissertatsiya avtoreferati 2023 yil «___» _____ kuni tarqatildi.

(2023 yil «___» _____dagi ____ raqamli reestr bayonnomasi).

A.Sh. Inoyatov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi,
tibbiyot fanlari doktori, professor

N.N. Kazakova

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy
kotibi, tibbiyot fanlari bo'yicha falsafa
doktori (PhD) dotsent

B.Z. Xamdamov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy s`eminar raisi, tibbiyot
fanlari doktori

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining avtoreferati)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Termik shikastlanishlar jarrohlik va travmatologiya sohasidagi muammolardan markaziy o‘rinlardan birini egallaydi. Hozirgi vaqtda rivojlangan mamlakatlarda kuyish chastotasi yiliga aholi o‘rtasida 1:1000 ni, kuyish tufayli vafot etganlar soni esa 1,5 - 5,9% ni tashkil qiladi¹.

Keng ko‘lamli og‘ir kuyish bilan og‘rigan bemorlarda o‘limning mumkin bo‘lgan sabablari orasida doimiy ravishda yetakchi o‘rinda turadigan og‘ir kuygan bemorlarda infeksiyani umumiy tarqalishini diagnostikasi va davolash hanuzgacha dolzarb muammo bo‘lib qolmoqda. Turli mualliflarning fikriga ko‘ra, kuyish sepsisi natijasida vafot etgan bemorlar o‘lim darajasi 23% - 82% ni tashkil qiladi².

Bemorning hayotiga bevosita xavf tug‘dirishdan tashqari, infeksiyaning uzoq vaqt davom etishi nafaqat kuygan yaralarni davolash jarayonini kechikishiga olib keladi, «...balki yallig‘lanayotgan hujayralarning surunkali qo‘zg‘alishi natijasida ortiqcha chandiqlarning yuzaga kelishiga ham sabab bo‘ladi...»³. Infeksiya kuyish jarohatlarini o‘z vaqtida autodermoplastik yopish uchun qiyinchiliklar tug‘diradi, shuning uchun infeksiya va kuygan yarani erta nekrektomiya qilish masalalari dolzarb bo‘lib qolmoqda.

Shunday qilib, har qanday darajadagi kuyish yara infeksiyasining rivojlanishi uchun sharoit yaratadi. Kuyish kasalligining klinik ko‘rinishi bilan namoyon bo‘ladigan, yuqumli jarayonning rivojlanishi va uni umumilashtirilishiga sharoit yaratadigan keng va chuqur ko‘lamli kuyish organizmda bir qator patologik jarayonlarni yuzaga keltiradi. Mikroorganizmlar invaziyasi uchun kirish eshigini yaratadigan tananing katta yuzasidagi himoya teri qoplamasining yo‘qolishidan tashqari qo‘shimcha ravishda, bu - tananing eng muhim neyrotrofik va metabolik funktsiyalarining dezintegratsiyasi bo‘lib, infeksiyaga qarshi himoya omillarining buzilishlarga olib keladi.

Og‘ir kuygan bemorlarda tizimli yallig‘lanishga javob sindromi ning rivojlanishini oldini olish choralari katta ahamiyatga ega bo‘lib, ular orasida nekrotik to‘qimalarni erta jarrohlik yo‘li bilan kesish yetakchi hisoblanadi, chunki kuyish yarasi aynan umumiy infeksiya va tizimli yallig‘lanishga javob sindromining manbai bo‘lib xizmat qiladi.

Mamlakatimizda sog‘liqni saqlash tizimini takomillashtirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli choralar orasida xirurgik kasalliklarga erta tashxis qo‘yish, kompleks davolash, ular asoratlarini kamaytirish va oldini olishga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Bu borada 2022-2026 yillarda Yangi O‘zbekistonni

¹ Королёв В.А., Гапич А.В., Бородина Е.Ю. Домбаев А.А., Новиков М.Д. Опыт лечения ожогов II-III-IV степени с помощью мазей стелланин-ПЭГ и стелланин. // Медицина №1 (15). Санкт-Петербург, 2013, с. 67-68.

² Жилинский Е.В., Губичева А.В., Скакун П.В., Алексеев С.А. Раневая инфекция у пациентов с ожоговой болезнью. // "Фундаментальная наука в современной медицине 2017" Научно-практическая конференция студентов и молодых ученых. Минск, БГМУ 2017, с. 112-114.

³ Фаязов А.Д., Туляганов Д.Б., Камилов У.Р., Рузимуратов Д.А. Современные методы местного лечения ожоговых ран. // Вестник экстренной медицины, том 12, №1. Ташкент, 2019, с. 43-47.

rivojlantirish strategiyasida ko'rsatilgan 7 ta ustuvor yo'nalishning 4-qism 56-maqсадida «... aholi salomatligini muhofaza qilish, tibbiyot xodimlari potentsialini oshirish va sog'liqni saqlash tizimini rivojlantirishning 2022-2023 yillarga mo'ljallangan dasturini amalga oshirishga yo'naltirilgan kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish...»⁴ vazifalari belgilangan.

Mazkur dissertatsiya taqdimoti O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-noyabrdagi PF-6110-son «Birlamchi tibbiy sanitariya yotdami muassasalari faoliyatiga mutlaqo yangi mexanizmlarni joriy qilish va sog'liqni saqlash tizimida olib borilayotgan islohatlar samaradorligini yanada oshirish chora tadbirlari to'g'risida»gi va 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son «2022-2026 yillarda Yangi O'zbekistonni rivojlantirish strategiyasi to'g'risida» va 2020 yil 12 noyabrdagi PQ-4891-son «Tibbiy profilaktika ishlari samaradorligini yanada oshirish orqali jamoat salomatligini ta'minlashga oid qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida»gi Qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga muayyan darajada xizmat qilgan.

Tadqiqotning O'zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Dissertatsiya tadqiqoti fan va texnologiyalarning rivojlanishini VI “Tibbiyot va farmakologiya” ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoni o'rganilganlik darajasi. Jarrohlik sepsisining diagnostikasi, profilaktikasi va davolash eng dolzarb muammolardan biri bo'lib qolmoqda [Yuldashev Sh.S., 2016; Jilinskiy Y.V., 2017; Fayazov A.D., 2019; Xolmurodov B.N., 2019; Kozka A.A., 2021]. Kombustiologiyada u ayniqsa jiddidir, chunki kuygan bemorlarda o'limning asosiy sababi yuqumli asoratlar hisoblanadi [Kudryavtsev A.N., 2017].

Kuygan bemorlardagi yuqumli asoratlarni o'rganishga bag'ishlangan fundamental tadqiqotlari tufayli [Ushakova T.A., 2015; Kulabuxov V.V., 2021], davolashning umumiy natijalarini yaxshilangan, ammo shu bilan birga og'ir termik jarohati bo'lgan bemorlarda sepsisning patogenezi, diagnostikasi va intensiv terapiya tamoyillari bo'yicha yangi savollar tug'dirdi.

Kuygan bemorlarda ushbu tashxisni o'z vaqtida aniqlashda ma'lum bir qiyinchiliklar borligini ta'kidlash lozim. Ular, birinchi navbatda, O'zbekiston Respublikasida “kuyish sepsisi” tushunchasiga haligacha aniq ta'rif berilmaganligi bilan bog'liq. Ushbu asoratning umumiy qabul qilingan tasnifi mavjud emas, bu esa o'z navbatida uning profilaktikasi va davolashda ko'plab klinik kuzatuvlarni umumlashtirish va yagona yondashuvlarni ishlab chiqishda qiyinchilik tug'diradi.

Vaziyatni muammoli ekanligi, xususan, R. Bonening umumiy jarrohlik amaliyotida sepsis tashxisiga bo'lgan yondashuvlarini faol targ'ib qilish fonida seziladi. Bugungi

kunda aksariyat umumiy jarrohlar va anesteziist-reanimatologlar uchun

⁴ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son «2022-2022 yillarda Yangi O'zbekistonni rivojlantirish strategiyasi to'g'risida»gi Farmoni.

organizmning yuqumli o'chog'ining shakllanishi vaqtidagi reaksiyasini aks ettiruvchi klinik belgilarning og'irligini hisobga olgan holda tizimli yallig'lanishga javob sindromi, sepsis va og'ir sepsisni ajratishda shubha tug'dirmaydi. Shu bilan birga, kuyish sepsisiga nisbatan bunday yondashuv hali o'rnatilmagan. Bundan tashqari, terining keng shikastlanishi bo'lgan bemorlarda, kuyish kasalligining dastlabki davrida, hali kuyishning yuqumli jarayonining klinik belgilari mavjud bo'lmasada, zamonaviy sepsis kontseptsiyasining asosi bo'lgan tizimli yallig'lanishga javob sindromi haqidagi ma'lumotlarning mavjudligi kuzatiladi. Bu holat asosan kuyish sepsisini tashxislash qiyinligini anglatadi. Ko'pincha u kechiktiriladi, bu shubhasiz davolash natijalariga ta'sir qiladi. Bularning barchasi kuyish sepsisining patogenezida tizimli yallig'lanishning rolini va og'ir kuygan bemorlarda infeksiyani umumlashtirishni erta tashxislash uchun tizimli yallig'lanishga javob sindromi mezonlarini qo'llash imkoniyatini o'rganishga bo'lgan qiziqishni belgilaydi.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy o'quv muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasi bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti DFTS 14-1.14 «Tibbiyot va aholi salomatligini muhofaza qilishda yangi usullar va texnologiyalarni ishlab chiqish va takomillashtirish» (Davlat ro'yxati № 001386) bo'yicha Samarqand davlat tibbiyot universitetining tadqiqot rejasi doirasida amalga oshirildi.

Tadqiqotning maqsadi erta jarrohlik yo'li bilan davolashning ta'siriga asoslangan kuyish sepsisini diagnostikasi, oldini olish va davolash samaradorligini oshirishdan iborat bo'lgan.

Tadqiqot vazifalari

Tizimli yallig'lanishga javob sindromi, C-reaktiv oqsil (CRO) va prokalsitonin (PKT) darajasini balli baholash asosida kuyish sepsisining klinik kechishini o'rganish.

SOFA shkalasi asosida umumiy infeksiyasi bo'lgan kuygan bemorlarda tizimli yallig'lanishga javob sindromining klinik kechishini baholash.

Kuyish sepsisi bo'lgan kuygan bemorlarda tizimli yallig'lanishga javob sindromini korreksiyasi uchun kompleks davolash dasturida ozon terapiyasining samaradorligini ishlab chiqish va baholash.

Kuyishdan aziyat chakayotgan bemorlarning tizimli yallig'lanishga javob sindromi profilaktikasida va keng ko'lamlı chuqur kuyish bilan og'riğan bemorlarda o'limni oldini olishda erta jarrohlik usulida davolashning o'rni va rolini aniqlash.

Tadqiqot ob'ekti 2017-2020 yillar oralig'ida bo'lgan davrda Respublika shoshilinch tibbiy yordam ilmiy markazi Samarqand filialining kobustsiologiya bo'limida statsionar sharoitda davolangan 130 nafar keng ko'lamlı og'ir kuygan bemorlar olindi.

Tadqiqot predmetini kuyish sepsisining erta tashxisi uchun prokalsitonin testi va C-reaktiv oqsil darajasining samaradorligi natijalarini tahlili tashkil qildi.

Tadqiqot usullari. Tadqiqot maqsadiga erishish va qo'yilgan vazifalarni amalga oshirish uchun quyidagi usullar qo'llanildi: umumiy klinik, laboratoriya, mikrobiologik, instrumental (ultratovush, endoskopik, rentgen tekshiruv usullari) va statistik tadqiqot usullari.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

infeksion asoratlarning turli darajasi bo'lgan kuygan bemorlarda tizimli yallig'lanishga javob sindromining namoyon bo'lishi aniqlangan;

kuyish kasalligining dastlabki bosqichida sepsisi bo'lgan va bo'lmagan kuygan bemorlarda ozon terapiyasini qo'llash sxemasi ishlab chiqilgan;

sepsis biomarkeri sifatida prokal'sitonin testi va C-reaktiv oqsilning diagnostik ahamiyati o'rganilgan. Termik shikastlanishda infeksiyaning umumlashtirilishini tasdiqlash uchun uning informatsion ahamiyati katta ekanligi asoslangan;

kuyish sepsisi yoki infeksiyaning umumlashtirishni yuqori xavfi bo'lgan bemorlarda dastlabki antibiotik terapiyasining sxemalarini belgilashdagi yondashuvlarini aniqlash uchun birinchi marta termik travmaning og'irlik darajasi natijasini prognostik baholash asoslangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

tizimli yallig'lanishga javob sindromining nomoyon bo'lishini baholashga asoslangan, og'ir termik travmada infeksiyaning umumlashtirilishini imkon qadar tezroq aniqlash maqsadida kuygan bemorlarda sepsisning diagnostik kontseptsiyasidan foydalanishning maqsadga muvofiqligi isbotlangan. Bu umumiy jarrohlik amaliyotida aprobatsiyadan o'tgan sepsisni patogenetik davolashning yangi yondashuvlarini kombustsiologiya amaliyotini faolroq joriy etish imkonini bergan.

og'ir kuygan bemorlarda travmadan keyin 4-10 kunlarda sepsis rivojlanish xavfi yuqori ekanligi ko'rsatilgan. Ayniqsa, sepsisning og'ir shakllarining rivojlanishi nuqtai nazaridan, 50 yoshdan oshgan jabrlanuvchilar, shuningdek, terining keng ko'lamli kuyishi (tana yuzasining 30% dan ko'prog'i) va nafas yo'llarining og'ir shikastlanishi bo'lgan bemorlarda alohida hushyorlikni talab qilgan.

Amalda keng qo'llaniladigan biomarkerlarning (prokalsitonin testi va C-reaktiv oqsil) kuyish sepsisini tashxislashda yuqori informatsion ahamiyati ko'rsatilgan. Bu kuyish bilan og'irgan bemorlarda tizimli yallig'lanishga javob sindromining og'irligini hisobga olgan holda infeksiyani umumlashtirish faktini aniqlash uchun kompleks yondashuvdan foydalanish maqsadga muvofiqligini tasdiqlagan.

Infeksiyani umumlashishidagi asosiy manbalari bu kuygan yaralarga nozokomial shtammlar va mikroorganizmlarning yuqqanligi bilan isbotlangan. Bu holat, shuningdek, yara infeksiyasini umumlashishining mumkin bo'lgan davrini aniqlashda ko'rsatmalarni qayta ko'rib chiqishga va infeksiya manbasini yo'q qilish uchun og'ir kuygan bemorlarni erta jarrohlik davolashning optimal vaqtini aniqlashga imkon bergan.

Kuygan bemorlarda yara infeksiyasining asosiy qo'zg'atuvchisi aniqlandi. Monitoring ma'lumotlariga asoslanib, antibakterial terapiyaning adekvat tahlili va klinik samaradorligini, shuningdek travmaning og'irligini prognostik baholash ma'lumotlari asosida kuygan bemorlarda sepsis uchun boshlang'ich antibakterial terapiyasining sxemalarini tayinlash uchun ko'rsatmalar ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi amaliyotda keng qo'llaniladigan zamonaviy klinik, laboratoriya va instrumental tadqiqot usullaridan foydalanish bilan tasdiqlangan. Barcha olingan natijalar va xulosalar dalili tibbiyot tamoyillariga asoslanadi. Statistik ishlov berish olingan natijalar va xulosalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlanganligiga asoslangan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundan iboratki, olingan xulosalar va takliflar o'zining nazariy ahamiyatiga ega bo'lib, ular kuyish sepsisining kechishini klinik va funksional xususiyatlarini o'rganishga katta hissa qo'shgan.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundan iboratki, ishda keltirilgan asosiy xulosalar va tavsiyalar kombiostiologiya bo'limlarida kuyish sepsisiga chalingan bemorlarni tashxislash va davolashda ishlatilishi mumkin, shuningdek prokalsitonin testi bilan sepsisning erta tashxisi qo'yilgan. Taklif qilingan algoritm taktikasi kuyish sepsisiga chalingan bemorlarni konservativ (ozonoterapiya) va erta jarrohlik usuli bilan davolash taktikasini tanlashni optimallashtirgan.

Tadqiqot natijalarini joriy qilinishi. Og'ir kuygan bemorlarda kuyish sepsisini erta diagnostikasi va davosini takomillashtirish bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida: kuyish sepsisini davolash bo'yicha olib borilgan tadqiqotning ilmiy natijalari asosida ishlab chiqilgan «Kuyish sepsisi (patogenezi, tashxislash va davolash)» nomli uslubiy tavsiyanomasi ishlab chiqilgan (Sog'liqni saqlash vazirligining 2022 yil 15 fevraldagi 8n-r/125-son xulosasi). Taklif etilgan tavsiyalarni qo'llash kuyish sepsisini davolash taktikasini optimallashtirish va o'lim holatlarini kamaytirish imkonini bergan;

erta jarrohlik usulida davolashga asoslangan kuyish sepsisini diagnostikasi, oldini olish va davolash samaradorligini o'rganish bo'yicha olingan ilmiy natijalar sog'liqni saqlash, jumladan, Samarqand shahar tibbiyot birlashmasi va Respublika shoshilinch tez yordam ilmiy markazining Samarqand filiali amaliyotiga joriy etilgan (Sog'liqni saqlash vazirligini 2022 yil 21 fevraldagi 8n-z/94-son ma'lumotnomasi). Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi kasallikni erta aniqlash imkonini bergan, kasallikning rivojlanish darajasi, asoratlari soni va o'lim darajasining pasayishiga imkon bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 5 ta ilmiy anjumanda, jumladan, 2 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 29 ta ilmiy ish chop etilgan bo'lib, shulardan O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 10 ta maqola, jumladan, 8 tasi respublika va

2 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi. Dissertatsiya kirish, to'rtta bob, xotima, xulosalar, amaliy tavsiyalar va keltirilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Matn materialining hajmi 118 betni tashkil etgan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tadqiqotning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsad va vazifalari shakllantirilgan, ob'ekti va predmeti, respublikada fan va texnologiyalarini rivojlantirish ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, ilmiy yangilak, tadqiqotning amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarining ishonchliligi, ularning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotda joriy qilinganligi, aprobatsiya natijalari, nashr qilingan ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Kuyish sepsisini tashxislash, davolash va oldini olishda erishilgan yutuqlar va istiqbollari”** deb nomlangan birinchi bobida ilmiy manbalar tahlili batafsil yoritilgan. Mahalliy va xorijiy tadqiqotchilarning ilmiy yutuqlari eng zamonaviy darajada chuqur tahlil qilingan, sharxda kuyish sepsisini tashxislash, davolash va oldini olishda erishilgan yutuqlari va istiqbollari, kuyish sepsisining holati, xavf omillari, klinikasi va ushbu patologik jarayonni davolashning asosiy yo'nalishlari to'g'risidagi ma'lumotlar tahlil qilingan. Turli usullar va tashxislash mezonlarini standartlashtirishda ilmiy tadqiqotlarni takomillashtirishning maqsadga muvofiqligi to'g'risida xulosa chiqarilgan.


Dissertatsiyaning **“Tadqiqot materiallari va usullari”** deb nomlangan ikkinchi bobida tekshirilayotgan bemorlarning umumiy xususiyatlari to'g'risida ma'lumotlar va qo'llanilgan tadqiqot usullariga bag'ishlangan.

Vazifalarni bajarish uchun - og'ir kuygan bemorlarda kuyish sepsisining qator laboratoriya markerlarining prognostik va diagnostik qiymatini baholash uchun biz istiqbolli tadqiqot o'tkazdik, tadqiqot davomida asosiy e'tibor bakteriologik ma'lumotlar yordamida jarayonning etiologiyasini aniqlashga qaratilgan.

Tadqiqot oldidan qo'yilgan maqsad va vazifalarga amalga oshirish uchun 2017-2020-yillar davomida RSHTYoIM Samarqand filialining kombustiologiya bo'limida davolangan jami 130 nafar termik travma olgan bemorlarning ma'lumotlaridan foydalanilgan.

Bemorlarning yoshi 17 yoshdan 76 yoshni (o'rtacha $48,5 \pm 2,0$ yil) tashkil qilgan. Ulardan 74 nafari erkaklar (56,9%), ayollar 56 nafari (43,1%). Jabrlanganlarning 82 nafari (63,1%) mehnatga layoqatli yoshda. Kuzatilgan barcha bemorlarda IIIB - IV darajali chuqur kuyish maydoni bo'lib, tana yuzasining 20% dan (85% gacha) (o'rtacha $41,5 \pm 2,5\%$) ortig'ini tashkil qilgan.

Tadqiqot uchun chuqur kuygan bemorlar shartli ravishda 2 guruhga bo'lingan: asosiy (I va II kichik guruhlar) va nazorat guruhi (I va II kichik guruhlar) (1-rasm).



1-rasm. O'rganilayotgan guruhlarda og'ir kuyganlarning taqsimlanishi.

50 nafar bemorni o'z ichiga olgan I kichik guruhda (asosiy I quyi guruh) kuyish sepsisini davolash an'anaviy kompleks usuldan foydalangan holda amalga oshirildi va ozonlangan fiziologik eritma (OFE) bilan to'yingan 4,0 mg/l konsentratsiyasi sutkada bir marta 200 ml hajmda tomir ichiga tomchilab yuborilgan.

30 nafar bemordan iborat II kichik guruhda (asosiy II quyi guruh) vena ichiga ozon terapiyasiz kuyish sepsisining kompleks patogenetik terapiyasi o'tkazildi.

I kichik guruhda (nazorat guruhidan I quyi guruh) kuygan 30 nafar bemor ozon terapiyasi bilan birgalikda an'anaviy kompleks davolashni oldi, ularda kuyish sepsisi aniqlanmagan.

Va nihoyat, 20 nafar bemordan iborat II kichik guruhda (nazorat guruhi) kuyish kasalligi umumiy ma'lum an'anaviy usullar bilan (ozon terapiyasiz) davolangan.

Shikastlanishga sabab bo'ladigan kuyish travmasining mexanizmlari va termik vositalar turlicha edi.

Tadqiqotlar olov natijasida kuyish (69,2%) etiologik omil sifatida eng katta ulushga ega bo'lib, ular teri qoplamalarining zararlanish darajasi va chuqurligi bilan ajralib turishini ko'rsatgan.

Kuygan bemorlarni davolash taktikasini aniqlash uchun kasalxonaga yotqizish vaqti katta ahamiyatga ega. Ma'lumki, bemorlar qanchalik kech kelsa, turli xil asoratlar (POY) yuzaga kelishi sababli ularni davolash shunchalik qiyin bo'ladi.

Terining kuyishi bilan og'irgan bemorlarning ko'pchiligi jarohatdan keyingi dastlabki 6 soat ichida (75,4%) yotqizilgan.

Shikastlanish maydoni umumiy qabul qilingan "to'qqizlik" qoidasiga muvofiq baholandi (A.B.Wallace, 1951).

Shikastlanish chuqurligi A.A.Vishnevskiy va hammualliflarining (1960) 4-darajali (I, II, IIIAB, IV) tasnifiga muvofiq aniqlangan.

Kuyish travmasining og'irlik darajasini ob'ektivlashtirish uchun Frank indeksi

- FI qo'llanilgan (G. Frank, 1960).

Tekshirilgan bemorlarga o'tkazilgan tahlillar faqat 9 (6,9%) nafar bemorda chuqur kuyish bilan birgalikda terining yuzaki shikastlanishi mavjudligini ko'rsatdi. Chuqur kuyish 20 dan 40% gacha (71,5%), 32 nafarda (24,7%) esa 50% va undan yuqori o'ta kritik chuqur jarohatlar mavjud.

Bizning materialimizni termik shikastlanishning lokalizatsiyasi nuqtai nazaridan tahlil qilish, birinchi navbatda, ko'p kuyish (58,5%) va ko'krak + qorin + oyoq- qo'llarning (30,0%) kuyishi ahamiyatli darajada kuzatilganligini ko'rsatadi.

Ushbu guruhlardagi tekshirilgan bemorlarning shikastlanish og'irligi bo'yicha taqsimlanishi 1-jadvalda keltirilgan.

1- jadval

Ko'zdan kechirilgan bemorlarni chuqur kuyish sohasiga qarab taqsimlash

Chuqur kuyish maydoni tana yuzasining % da	Asosiy guruh		Nazorat guruhi		Hammasi	
	Bemorlar soni	%	Bemorlar soni	%	Bemorlar soni	%
21-30 %	21	26,3	20	40,0	41	31,5
31-40%	25	31,2	27	54,0	52	40,0
41-50%	5	6,3	-	-	5	3,8
51-60%	23	28,7	2	4,0	25	19,3
60% dan ko'proq	6	7,5	1	2,0	7	5,4
Jami	80	100,0	50	100,0	130	100,0

1-jadvaldan ko'rinib turibdiki, kuyish kasalligida sepsisning chastotasi chuqur kuyish maydoniga bog'liq. Shu bilan birga, bir tomondan sepsisning rivojlanish ehtimoli va uning oldini olish samaradorligi, ikkinchi tomondan esa, chuqur kuyish maydoni va avtoplastika uchun terining yetishmasliga bog'liqligi bilan belgilanadi. Demak, tekshirilgan 41 nafar bemordan 21-30% chuqur kuyishi bo'lgan 20 nafar bemorda sepsisning oldi olindi va 21 nafarida (26,3%) u rivojlandi. Shu bilan birga 52 nafar bemordan 31-40% chuqur kuyishi bo'lgan 25 (31,2%) nafarda, 40% dan ortiq chuqur kuyish bilan tekshirilgan 37 bemorning 34 (91,9%) nafarida sepsis rivojlangan.

Sepsis bilan bog'liq kuyish kasalligining eng keng tarqalgan asoratlari bu-pnevmoniya bo'lib, 29 (36,3%) nafar bemorda qayd etilgan, shuningdek, 17 (21,3%) nafar bemorlarda holdan toyish kuzatilgan. Yuqumli bo'lmagan tabiatning asoratlardan oshqozon-ichak traktida eroziv-yarali o'zgarishlari kuyish sepsisi bo'lgan 80 nafar bemordan 18 nafarida (22,5%) aniqlangan.

Kuygan bemorlarda sepsisning klinik ko'rinishi ko'p jihatdan uning rivojlanish vaqtiga bog'liq. Frank indeksi 130 shart birlikdan ortiq bo'lgan 30-50% chuqur kuyish bilan o'ta og'ir shokni boshdan kechirgan 25 nafar bemorda erta sepsis aniqlangan. CRO va PKTni dinamikada bir vaqtda o'rganish tufayli, biz qattiq kuygan bemorlarda "erta" sepsis tashxisini qo'yishga muvaffaq bo'ldik. Klinik, laboratoriya va mikrobiologik tadqiqotlar natijasida 10-15 kun davomida

og'ir shok holatidan tiklangan 55 nafar og'ir kuygan bemorlarda kuyish sepsisi aniqlangan. Sepsis bilan og'irgan barcha bemorlarda POY kuzatildi: 87,5% holatda yurak-qon tomir yetishmovchiligi, pnevmoniya 84,6%da, oliguriya 48,7% da, dinamik ichak tutilishi 43,8% da, jigar disfunktsiyasi, koagulopatiya va boshqalar.

Kuyish kasalligi bilan tekshirilgan 80 nafar bemordan 36 nafarida (45%) sepsis o'limga sabab bo'ldi. Biroq, sepsisda o'lim darajasi o'rtacha 45% (asosiy guruh - I quyi guruh - 19 kishi - 38%, II quyi guruh - 17 kishi - 56,7%) ni tashkil qilib yuqoriligicha qolmoqda.

Aksariyat hollarda kuyish sepsisi bilan og'irgan bemorlarning o'limiga muhim organlarning (pnevmoniya, miokardit, gepatit, nefrit vaboshqalar) funktsiyalarining dekompensatsiyasi tufayli poliorgan yetishmovchiligiga (POY) bevosita sabab bo'ldi.

"Erta" sepsis yomon prognozga egaligi bilan farq qiladi. Kuzatishlarimizga ko'ra, sepsisdan vafot etgan 36 ta o'limdan 13 tasida (36,1%) og'ir kuyish intoksikatsiyasi va hayotiy organlarning dekompensatsiyasi (TYJS) fonida jarohatlardan keyin o'limga olib keladigan natija qayd etilgan.

Kuyish sepsisida o'lim xavfini tahlil qilish, uning terapiyasining qiyinligini va ko'pincha muvaffaqiyatsizligini ko'rsatadi. Biroq, kuyish kasalligining ushbu qo'rqinchli asoratini erta tashxislash (CRO, PKT testlari) va prognoz qilish uchun biz tomondan ishlab chiqqan usullarga asoslangan zamonaviy kompleks patogenetik intensiv davolash vaziyatni sezilarli darajada o'zgartirishga imkon berdi.

Xavfli guruhdagi (taqqoslash guruhi) og'ir kuygan bemorlarning o'lim darajasi, bizning ma'lumotlarimizga ko'ra, atigi 10% ni (50 kishidan 5 kishi) tashkil qildi. Shu sababli, sepsisning eng yaxshi davosi uning oldini olish ekanligiga shubha yo'q.

Dissertatsiyasining **“Nazorat guruhidagi bemorlarda kuyish sepsisining klinik kechishi va davolash usullari”** deb nomlangan uchinchi bobida kuyish kasalligining asoratsiz kechishida 50 nafar bemorda (nazorat guruhi), travmaning og'irlik darajasining ortishi bilan TYJSning davomiyligi oshdi: FI bo'lgan bemorlarda 70 birlikgacha - 2 hafta, FI 90 birlikdan ortiq bo'lgan bemorlarda guruhlar orasidagi sezilarli farq bilan 3 hafta ($p < 0,05$).

Asoratlarning rivojlanishi (sepsis, pnevmoniya), travmaning og'irlik darajasidan qat'iy nazar, har bir guruh ichidagi asoratsiz kurs bilan solishtirganda TYJS davomiyligini sezilarli darajada ortdi ($p < 0,001$).

Bemorlardagi bakterimiya va sepsisning asosiy manbai kuygan yara hisoblanadi. Kuyganyaralardan ajraladigan mikroflorani tahlil qilish shuni ko'rsatdiki, koagulaza-musbat stafilokokklar (78,6%), Pseudomonas aeruginosa - (74,1%) va fekal enterokokklar (56,2%) yuqish darajasining eng yuqori qiymatini ko'rsatdi. Tarkibida u yoki bu turdagi mikroorganizmlar bo'lgan bakteriologik tekshirilgan namunalar ulushini tavsiflovchi doimiylik indeksining qiymatlari o'sha turdagi mikroorganizmlar uchun eng yuqori bo'lgan (koagulaza-musbat stafilokokklar - 70,8%; Pseudomonas aeruginosa - 52,7% va fekal enterokokklar 38,1%).

Kuygan bemorlarning qonini ekish natijalari bakteriemiyaning mikrobli spektrini tavsifladi. 62 nafar bemordan (54,9%) ijobiy gemokultura olindi. Avvalo, ko'rsatilgan flora orasida stafilokokklarning har xil turlarining sezilarli ustunligi (infeksiya darajasi 31,9%) , doimiylik ko'rsatkichining eng yuqori qiymati (16,8%) e'tiborni tortdi, shu bilan birga 3/4 qismini koagulaza-musbat stafilokokklar tashkil qildi.

Bizning fikrimizcha, 9 dan 32 sutkagacha markaziy vena qon tomirlaridagi kateterlaridan olingan kulturalarning ekish natijalari juda muhim edi. Kateterlardan olinib ekilgan mikroorganizmlarning deyarli bir xil spektri koagulaza-musbat stafilokokklar (yuqish darajasi 62,5%; doimiylik darajasi - 55,6%), shuningdek Pseudomonas aeruginosa, enterokokklar (har bir turning ulushi mos ravishda 12,5% va 12,5% va 11,1%) va enterobakteriyalar (mos ravishda 31,3% va 27,8%) ustunlik qiladigan, ulardan klebsiellaning ulushi mos ravishda 12,5% va 11,1% ni tashkil qildi. Kandida mos ravishda 6,3% va 5,6% da aniqlangan.

Kuyish shoki bilan gipovolemiyani korrektsiyalash uchun biz E.Evans tomonidan keng qo'llaniladigan formuladan foydalandik.

An'anaviy davolash (ozon terapiyasiz) usuli qo'llanilgan nazorat guruhidagi II quyi guruhida kuyish shoki bo'lgan bemorlarning organ-tizimli shikastlanishlar chastotasini o'rganish shuni ko'rsatdiki, TYJS barcha (100%) kuygan bemorlarda aniqlangan. Shu bilan birga, aksariyat holatlarda - 19 (63,3%), uch yoki undan ortiq organ va tizimlarning disfunktsiyasining kombinatsiyasi aniqlandi.

O'limga olib keladigan natijalar tarkibida nafas olish yetishmovchiligi (88,89%), yurak-qon tomir tizimi (77,78%), markaziy asab tizimi (66,67%), kam holatlarda - buyrak yetishmovchiligi (33,34%), hamda oshqozon-ichak yetishmovchiligi (22,23%) aniqlangan, shu bilan birga, qaytarib bo'lmaydigan poliorganlar yetishmovchiligining rivojlanishi ko'pincha nafas olish tizimi va oshqozon-ichak trakti yetishmovchiligi (massiv qon ketish) bilan boshlanadi.

Shunday qilib, kuyish shokini davolashning qoniqarsiz natijalari va ushbu patologiya tufayli o'limning yuqoriligi kuchli kuygan bemorlarga ixtisoslashtirilgan intensiv terapiyani optimallashtirishni va parenteral ozon terapiyasining zamonaviy, patogenetik jihatdan asoslangan sxemalarini joriy qilishni talab qiladi.

Bizning tadqiqotlarimiz shuni ko'rsatdiki, "xavf" guruhidagi bemorlarda (nazorat guruhining I quyi guruhi) parenteral ozon terapiyasini qo'llash yuqori samaradorligini ko'rsatadi.

Ozon oqsil sintezi jarayonlarini faollashtiradi, hujayralardagi ribosomalar va mitoxondriyalar sonini oshiradi. Hujayra darajasidagi bunday o'zgarishlar to'qimalar va organlarning funktsional faolligi va regenerativ potentsialining ortishi bilan izohlanishi mumkin. Ozon mikrosirkulyatsiya jarayoniga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Uning qonning reologik xususiyatlariga ta'siri qon koagulatsiyasining pasayishiga, zaif trombolitik ta'sirga, shlaklar va tomir ichidagi agregatlarning sonining kamayishiga, shuningdek tomir o'tkazuvchanligining ma'lum darajada pasaytiradi.

Parenteral ozon terapiyasi neytrofil leykotsitlarning chapga siljishini va

eritrotsitlarning cho'kish tezligini 1,5-2 baravar kamaytirishga, monotsitozni, leykotsitozni, neytrofiliyani kamaytirishga, periferik qon limfotsitlarini 1,5-2 marta oshirishga yordam beradi.

Dissertatsiyasining **“Kuyish sepsisini davolashning takomillashtirilgan usullarining samaradorligi va ularni an'anaviy davolash usullari bilan qiyosiy baholash” deb nomlangan** to'rtinchi bobida keltirilgan kuyish sepsisining patogenezi o'ta murakkab va ko'plab omillarga va ularning birikishiga bog'liq. Faqat doimiy dinamik kuzatuv asosida kuygan odam tanasidagi o'zgarishlarni baholash sepsisni bashorat qilish va tashxis qo'yish, ushbu asoratni kompleks patogenetik davolash uchun samarali sxemani tuzish mumkin. (2-rasm).




2-rasm. Kuyganlarda sepsisning patogenezi

TYJS rivojlangan 130 nafar bemorning 80 nafarida sepsis tashxisi qo'yildi, bu 61,5% ni tashkil etdi. Sepsis diagnostikasi klinik ko'rinishga asoslanib, TYJS ni balli baholashda qon ekmlarining ijobiy natijalarini aniqlanganda va o'lganlarda kesma ma'lumotlarini hisobga olgan holda qo'yildi. Ta'kidlanganidek, bakteriemiya tasdiqlangan 72 nafar bemor orasida sepsis bilan kasallangan bemorlarning (40,3%) ulushi 29 nafar bemorni tashkil etgan.

Kuyish sepsisi va septik shokni davolashda biz parenteral ozon terapiyasidan (OFEVIY) foydalangan holda 2016 yilda Kritik Tibbiyot Jamiyati (Society of Critical Care Medicine) va Evropa intensiv terapiya jamiyati (European Society of Intensive Care) tomonidan qabul qilingan III Xalqaro konsensus (Sepsis 3) tavsiyalariga amal qilingan.

Sepsis shok davridan boshlab, uning har qanday davrida kuyish kasalligining kechish kursini qiyinlashtirishi mumkin. Travmadan keyingi sutkalarda (birinchi 10-14 kun ichida) rivojlanadigan “erta” sepsis, ayniqsa, yuqori o'lim darajasi bilan tavsiflanadi (3-rasm). Erta sepsis keyinchalik rivojlanadigan umumiy infeksiyaga nisbatan bir qator xususiyatlarga ega.



3-rasm. "Erta" kuyish sepsisining rivojlanish davri

Klinik va laboratoriya ma'lumotlariga ko'ra (gemoglobin (Hb)), albumin - globulin koeffitsient testi (A/G), limfotsitlar, leykotsitlar, tana harorati 38° C dan yuqori) 3 martadan ortiq bemorlarda bakteriemiya qayd etilgan. Biz kuygan 80 nafar bemorda sepsis tashxisini qo'ydik, bu kuyganlarning 61,5% ni tashkil etdi.

Sepsis bilan og'rikan bemorlarning aksariyatida YUCh daqiqada 90 dan yuqori, nafas olish tezligi daqiqada 20 dan yuqori, gemoglobinning o'rtacha darajasi 72 g/l, limfotsitlar - 11%, A/G koeffitsienti - 0,97 ni tashkil qildi. Leykotsitoz $12 \times 10^9 / l$ dan yuqori yoki leykopeniya $4 \times 10^9 / l$ ni yoki yetilgan shakllar 10% dan ko'proqni va tana harorati 38°C dan yuqori yoki 35°C dan past bo'lganligini ko'rsatdi.

Kuyish sepsisida C - reaktiv oqsilining yuqori sezuvchanligi darajasi $77,8 \pm 9,7$ mg/l ni tashkil etib, 110-185 mg/l gacha ko'tariladi.

2-jadval

Sepsis bo'lgan kuygan bemorlarda bakterial infeksiyaning qiyosiy xarakteristikasi

Markerlar	Sezuvchanlik	O'ziga xoslik	IPQ	SPQ
Leykotsitoz $15 \times 10^9 / l$ dan ortiq	68%	57%	51%	74%
CRO 30 mg/l dan ortiq	76%	76%	67%	83%
PKT 2 ng/ml dan ortiq	67%	92%	85%	81%

Asosiy guruhni birlashtirib, biz leykotsitlar, C-reaktiv oqsili, prokalsitonin darajasining diagnostik qiymatining qiyosiy tahlilini o'tkazdik.

Sezuvchanlikni baholashda taqqoslangan belgilar o'rtasida sezilarli farq aniqlanmadi, lekin PKT ning o'ziga xosligi leykotsitodan $15 \times 10^9 / l$ dan ortiq va 30 mg/l dan yuqori CRO darajasidan sezilarli darajada oshdi (mos ravishda 92%, 57% va 76%). PKT ning IPQ ham taqqoslanadigan belgilarnikidan yuqori. SPQga kelsak, bu ko'rsatkich sezilarli darajada farq qilmaydi.


Sepsisni tekshirish prokalsitonin testi (PKT) asosida amalga oshirildi. PKT ning kritik chegara qiymati ≥ 2 ng / ml teng. Bemorlarning ahvolidan og'irlik

darajasi SOFA shkalasi bo'yicha aniqlandi.


Ularning 50 nafarida (38,5%) termik shikastlanishning o'tkir davrida (3-6 kun) sezilarli bakterial kontaminatsiya ($\geq 10^5$ KHQB/g) aniqlangan. Kuyish yaralarining bakterial kontaminatsiyasi bo'lgan 50 nafar bemordan 28 nafarida PKT darajasi ≥ 2 ng/ml ni tashkil etdi. PKT ≥ 2 ng/ml bo'lgan 30 nafar bemordan 7 nafari va PKT ≤ 2 ng/ml 20 nafar bemordan 6 nafari vafot etdi. Bemorning o'limiga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatdi: PKT ≥ 2 ng/ml qiymati va SOFA shkalasi bo'yicha ball - 18-24 ball. Antibiotik terapiyasining deeskalatsiya rejimini tanlash bemorlarning ushbu guruhida o'lim xavfini 38,8% ga kamaytirdi.

